

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV IISHLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

Joldasova Kamila Jollibaevna

(A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tadqiqotchisi)

e-mail: sobrina84@mail.ru

tel: +99891 3002725

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish, maqsadi va vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim omillaridan biri ekanligi ta'kidlangan.

Tajriba-sinov jarayonida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish mazmuni, o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda solishtirish, tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda malaka oshirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniqlovchi va ta'kidlovchi bosqichdagi ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida tajriba o'rganilganligi bayon qilingan. Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarida asosan malaka oshirish jarayonida informal ta'limdan foydalanish darajasini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tajriba-sinov, tajriba-sinov ishlari dasturi, aniqlovchi tajriba-sinov ishlari, tamoyillar, tahlil.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ

Аннотация: В данной статье приведены сведения об организации и проведении педагогических экспериментально-исследовательских работ, их целях и задачах. Подчёркнуто, что педагогические экспериментально-исследовательские работы являются важным элементом успешной организации учебного процесса. В процессе экспериментальных исследований рассматривается содержание преподавания информатики и информационных технологий, определение и сравнение уровня знаний преподавателей, а также особенности процесса повышения квалификации при организации экспериментальных работ. Описаны рекомендации, разработанные на основе определяющего и акцентирующего этапов, с учётом использования неформального обучения в процессе повышения квалификации в ходе исследовательских работ. В определяющих экспериментальных работах основное внимание уделяется установлению уровня использования неформального обучения.

Ключевые слова: экспериментально-исследовательские работы, программа экспериментально-исследовательских работ, определяющие экспериментально-исследовательские работы, принципы, анализ.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING AND CONDUCTING PEDAGOGICAL EXPERIMENTATION AND RESEARCH WORK

ABSTRACT: This article provides information on the organization and implementation of pedagogical experimental research work, its goals, and objectives. It emphasizes that pedagogical experimental research work is one of the important factors in successfully organizing the educational process. The content of teaching computer science and information technology, determining and comparing the knowledge level of teachers, and the specific features of the process of professional development in organizing experimental research work are discussed. Based on recommendations developed during the diagnostic and focal stages, the article examines the experiment. The diagnostic experimental work primarily focuses on determining the level of informal learning usage in the process of professional development.

Keywords: experiment, experimental research work program, diagnostic experimental research work, principles, analysis.

KIRISH: Pedagogik tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonini takomillashtirish, yangi pedagogik uslublarni sinovdan o'tkazish va o'quv jarayonini sifat jihatidan yaxshilash maqsadida olib boriladi. Tajriba-sinov o'tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogik, psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga oladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ta'lim jarayonida yangi metod va usullarni joriy etish va ularning samaradorligini baholashdir.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining vazifalari:

1. O'qituvchilar uchun yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish;
2. O'quv jarayonida muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini topish;
3. O'qituvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun samarali usullarni kashf etish;
4. Olingan natijalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tajribalar doirasida o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning faolligini kuchaytirish va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan.

ASOSIY QISM: Tajriba-sinov jarayonida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish mazmuni, o'rganish shart-sharoitlari, metodlari tanlanib, savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, baholash mezonlari jamlandi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari o'qituvchilar bilim darajasini aniqlash hamda solishtirish orqali amalga oshirildi.

Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida informal ta’limdan foydalanish darajasini aniqlashga qaratilgan. Tajriba-sinov ishlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat milliy markazlari tanlab olindi.

Tajriba-sinov ishlari belgilangan Pedagogik mahorat milliy markazlari informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini informal ta’lim yondashuvi asosida takomillashtirish, faollashtirish jarayonida foydalaniladigan metodlar va topshiriqlardan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni aniqlash, ularni yuzaga keltiruvchi omillarni o‘rganish, shu bilan birga tajriba-sinov davomida asoslangan natijalarga erishish maqsadi belgilab olindi.

Maqsaddan kelib chiqib, aniqlovchi tajriba-sinov ishlarining quyidagi vazifalari belgilanadi:

- informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida informal ta’limdan foydalanish ko‘nikmasini ishlash metodikasini tahlil qilish;
- informatika fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida informal ta’limdan foydalanish holatini o‘rganish;
- informatika fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida informal ta’limdan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan o‘qituvchilarning fikr mulohazalarini o‘rganish va tahlil qilish.

Tajriba – sinov ishlarini tashkil etish bir – biri bilan o‘zaro bog‘liq, tadqiqot maqsadiga bo‘ysunuvchi, shu bilan birgalikda, o‘z mazmuni, vazifalari, natijalariga ega bo‘lgan aniqlovchi va ta’kidlovchi bosqichda amalga oshirildi.

Aniqlovchi va ta’kidlovchi bosqichda Pedagogik mahorat milliy markazlari tizimi amaliyotida mavjud resurslar, turli yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘liqligi asosida jarayonni tashkil etish imkoniyatlari, o‘qituvchilarda malaka oshirish motivi hamda faolligi holati tahlil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari aniqlovchi bosqichi natijalarining tahlili

Tajriba-sinov dasturida belgilangan vazifalar doirasida anketa so‘rovnomasi orqali tashkil etildi. Tanlangan pedagogik mahorat milliy markazlardan 309 nafar tinglovchi ishtirok etdi.

Tahlillar natijasida informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari malakasini oshirishni ta’limning barcha turlari, ya’ni formal, noformal va informal malaka oshirish turlaridan foydalanish orqali samaradorlikka erishish mumkin, degan xulosaga kelindi. Shuning uchun, tadqiqot davomida malaka oshirish tizimini ta’limning formal, noformal va informal turlari asosida amalga oshirish bo‘yicha yondashuvlar tarkibi belgilandi.

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan Pedagogik mahorat milliy markazlarining informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilar soni quyidagi jadvalda keltirildi.

1-jadval

Tajriba–sinov ishining aniqlovchi bosqichida ishtirok etgan Pedagogik mahorat milliy markazlarining o‘qituvchilar soni

Pedagogik mahorat milliy markazlari	O‘qituvchilar soni
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	76
Samarqand viloyati	55
Andijon viloyati	148
Surxondaryo viloyati	30

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda malaka oshirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniqlovchi va ta’kidlovchi bosqichdagi ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida tajriba o‘rganildi.

Natijalar:

- Olib borilgan tajriba – sinov ishlari natijalarini tahlil qilish;
- O‘qituvchilar motivasiyasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi;
- O‘qituvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishi ortadi va o‘z - o‘zini anglash jarayoni kuchayadi;
- Olingan ko‘nikmalar o‘z-o‘zini ta’minlashga va jamiyatda faol bo‘lishga yordam beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari informatika va axborot texnologiyalari darslarida o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini faollashtirishga, faol bo‘lishga , o‘zini-o‘zi rivojlantirishga, bilimlarni o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga imkon beradi.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini taqqoslash maqsadida quyidagi diagrammani xosil qilamiz.



Demak, Natijalar tahlilidan tadqiqotning ilmiy farazini aniqlashtirish, dolzarbligini asoslash, nazariy rejalashtirish, Pedagogik mahorat milliy markazlari tizimini informal ta'lim yondashuvi asosida takomillashtirish yo'nalishlari va ularning mazmunini belgilashda foydalanildi. Shuningdek, shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichni o'tkazish hamda tadqiq qilish uchun tegishli materiallar tayyorlandi. Pedagogik mahorat milliy markazlarga informal ta'lim yondashuv o'quv rejasida belgilangan modullarni o'zlashtirish hamda tinglovchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini to'liq qamrab olish imkonini beradi. Buning uchun jarayonni tashkil qilish, o'qitish mazmunini ishlab chiqishda malaka oshirish ta'lim muassasalari, metodik xizmat tuzilmalari, pedagoglarning mustaqil ta'limi va o'z-o'zini rivojlantirishning uzviyligi hamda mustahkam aloqasini ta'minlash zarur bo'ladi.

Tahlil natijalari asosida Informatika va axborot texnologiyalri fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida informal ta'limni faollashtirishga oid metodik tavsiyalar, metodlar, maxsus topshiriqlar tizimi, vosita va mexanizmlar orqali o'qituvchilarning informal ta'limga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdir.

XULOSA

Pedagogik tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim omillaridan biridir. Ushbu ishlar yordamida o'qituvchilar yangi metod va usullarni sinab ko'rish, o'quv jarayoniga kreativ yondashuvni joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tajribalarni samarali o'tkazish uchun yaxshi rejalashtirish, o'qituvchilarni tayyorlash va natijalarni tahlil qilish lozim. Shunday qilib, informal ta'lim yondashuvi orqali amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlar nafaqat tinglovchilarning motivasiyasini kuchaytiradi, balki ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ham rag'batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begimkulov, U. Sh., Djurayev, R. X., Isyanov, R. G., Sharipov, Sh. S., Adashboyev, Sh. M., & Soy, M. N. (2011). Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent, 177.
2. Avliyoqulov. N.X, Musayeva N.X. Pedagogik texnologiya "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent 2012 yil.
3. Mavlanova R.A. Arabova M.A. Saloxitdinova G. "Pedagogik texnologiya" O'zbekiston fanlar akademiyasi fan nashriyoti. 2008 yil.
4. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva, "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" darslik. "IQTISODIYOT DUNYOSI". Toshkent. 2018 yil.
5. www.pedagog.uz
6. www.ziynet.uz